ishsizlik, iqtisodiy o'sish va valyuta kursi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni boshqarishga harakat qilinadi. Bu siyosatning samaradorligi uni amalga oshirish usullari, mamlakatning ichki iqtisodiy sharoitlari va global iqtisodiy tendentsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'llarni qo'llash muhim:

1. Foiz stavkalarini samarali boshqarish: Markaziy banklar foiz stavkalarini inflyatsiya va iqtisodiy o'sishni hisobga olgan holda muvozanatli qo'llashlari kerak.
2. Inflyatsiya niqobi strategiyasi: Inflyatsiyani ma'lum darajada (masalan, 2-3%) saqlab qolish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Pul-kredit siyosatini yanada samaraliroq qilish uchun mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy sharoitlariga moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur. Buning uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanish, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va uzoq muddatli rejalashtirish asosiy omil hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish orqali nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki jamiyatning turmush darajasini yaxshilash va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Bu yo'nalishda davomiy tadqiqotlar va innovatsion yondashuvlarni qo'llash kelajakda yanada muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi.

### Foydalanilgan manbalar

1. Pawlowski, A., & Szyszka, A. (2017). *Monetary Policy and Economic Growth*. Springer International Publishing.
2. Bernanke, B., & Gertler, M. (1995). Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 27-48.
3. Mishkin, F. S. (2001). The Transmission Mechanism and the Role of Monetary Policy. *Federal Reserve Bank of New York Economic Policy Review*, 7(1), 13-23.
4. Taylor, J. B. (1993). Discretion versus Policy Rules in Practice. *Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy*, 39, 195-214.
5. Özdemir, Z. A. (2011). The Role of Monetary Policy in Economic Growth. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 1(2), 95-104.
6. OECD. (2019). *Monetary Policy and Economic Growth: A Guide for Policymakers*. Organization for Economic Cooperation and Development.
7. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Monetary Policy Report*. Tashkent: Central Bank of the Republic of Uzbekistan.
8. Qutbiddinovich S. I., Ikromiddinovich S. K. TIJORAT BANKLARIDA UMUMIY ICHKI AUDIT TEKSHIRUVI USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. 03. – C. 51-5

## MONETARY POLICY AND WAYS TO IMPROVE ITS EFFICIENCY

**Anvarjonov J.**

Department of economics

Namangan State University

e-mail: anvarjonovjamshidbek44@gmail.com

ORCID: 0009-0000-5103-4540

**Abstract:** This article analyzes the ways to improve the effectiveness of monetary policy. Monetary policy plays an important role in ensuring the macroeconomic stability of the country. It sets out key goals such as controlling inflation, stimulating economic growth and increasing employment. The article touches on the effectiveness of the central bank's use of monetary funds, strengthening cooperation with commercial banks, rational use of credit resources and introduction of modern financial technologies. It also provides recommendations on improving the monetary policy based on international experience. The results of the study serve to strengthen economic stability and develop the financial system.

**Keywords:** monetary policy, central bank, inflation, economic growth, financial stability, monetary policy, banking system, money supply.

## KORXONA BUDGETINI TUZISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Sirojiddinov K.I.**

dotsent, i.f.n.

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

ORCID: 0000-0002-7851-5990

**Tursinbayev A.N.**

Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

e-mail: azizbektursinbayev5gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korxonada amalga oshiriladigan budgetlashtirish jarayonlari va mohiyati haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, korxonada budgetlashtirishni amalga oshirish kelajakdagi boshqaruv qarorlarini to'g'ri qabul qilishda, korxonaning kelajakda qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarini inobatga olish va yuqori daromadga hamda moliyaviy barqarorlikka erishishida ahamiyati to'g'risida mulohazalar olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv hisobi, budgetlashtirish, moliyaviy barqarorlik, korxonada daromadi va xarajatlari, qaror qabul qilish.

### Kirish

Hozirgi bozor tizimlari modernizatsiyalashgan davrda, har bir ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining asosiy maqsadi xarajatlarini minimallashtirish va daromadlarini maksimal darajaga ko'tarish hisoblanadi. Korxonada o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulot va xizmatlarning tannarxini aniq ravishda kalkulyatsiya qilish shuningdek, kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan favqulotdagi xarajatlarni va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni nazorat qilish orqali korxonaning moliyaviy holatini baholash hamda kalkulyatsiya qilish orqali kelgusi davrda erishishi mumkin bo'lgan daromadlarini hisoblash imkonini beradi.

Korxonada budgetlashtirish va xarajatlarni to'g'ri nazorat qilish kelgusida korxonada rahbarlari va menejerlar uchun korxonaning kelajakda qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarni va olishi mumkin bo'lgan maksimal daromadlarni to'g'ri hisoblash imkonini beradi.

Ko'plab korxonalar kelajakda amalga oshirishmoqchi bo'lgan operatsiyalar uchun strategik rejalar tuzishadi. Bozor muhiti sharoitida, har bir ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'zlarining kuchli, kuchsiz, tashqi imkoniyatlari va raqobatdoshlari bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni tekshirish orqali o'zlarining hozirgi vaziyatdagi holatlarini tahlil qilish imkoniga ega bo'lishadi.

Korxonalar o'zlarining hozirgi vaziyatini to'g'ri tahlil qilib bera olishi o'zlarining hozirgi vaziyatidagi moliyaviy kuchini va holatini yanada aniqrog' tushunish imkoniyati beradi. Bu tahlilni amalga oshirish esa korxonaning uzoq va qisqa muddatli maqsadlari, samaradorlik va qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni baholashni o'z ichiga oladi.

Buxgalteriyada budgetlashtirish jarayonini amalga oshirish uchun kelgusidagi daromad va xarajatlarni to'g'ri kalkulyatsiya qilish bu oldingi davrdagi qilingan xarajatlarni va daromadlarni asosida amalga oshiriladi shuningdek, bu ma'lumotlarni korxonaning boshqa qismlari o'z vaqtida taqdim etmasligi va ma'lumotlarni takomillashtirmagan holda, xato ravishda taqdim etilishi bu korxonada uchun budgetlashtirishni xato qilishini shu sababli kelgusida korxonaning gudvilligiga putur

yetkazuvchi qarorlarni qabul qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Hozirda korxonalarda yuzaga kelayotgan yuqoridagi kabi muammolarni hal etish esa korxonaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

### Adabiyotlar sharhi

Korxonani budgetlashtirish jaroyonlari AQSH va Buyuk Britaniya mamlakatlaridagi korxonalarda amalga oshirilgan va shu davrda dastlabki tushunchalar paydo bo'lgan. 1790-yil 9-yanvarda davlat kotibi Aleksandr Hamilton tomonidan Vakillar palatasiga "Davlat kreditlari to'g'risidagi hisobot" nomli hujjatning norasmiy budget bayonoti taqdim etiladi<sup>8</sup>.

1899-yilda E.H. Richardsning "The cost of living" nomli asarida Qishloq xo'jaligi departamentining uy xo'jaligi iqtisodiyoti byurosini oila byudjeti masalasi asosiy obyekt sifatida o'rganilgan.

O'zbek iqtisodchi olimlari B.A. Xasanov va A.A. Xashimovalarning qarashlariga ko'ra "korxonada budgetlashtirish operatsiyasini amalga oshirish bu korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hisoblanadi"<sup>9</sup>.

### Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani yozishda korxonada amalga oshiriladigan budgetlashtirish haqida nazariy fikrlar yuritilgan hamda hamda korxonada budgetlashtirish qanday tartibda amalga oshirilishi amaliy tarzda ko'rsatib o'tilgan va uning turlari kengroq yoritib berilgan.

### Natijalar

Korxonada budgetlashtirish operatsiyalari ikkinchi sanoat inqilobi davrida, 19-asrning oxiri va 20-asrning birinchi o'n yillar, qo'llanila boshlangan. Budget so'zi lotinchadan olingan bo'lib "bulga" charm qop, xalta degan ma'nolarni anglatadi. Sanoat inqilobi yuzga kelgan paytda, mahsulotlar va xizmatlarni yaratish ko'lami keskinlik bilan oshgan paytda korxonalar budgetlashtirishga ehtiyoj sezidilar. Har bir korxonada o'zining moliyaviy holatini yaxshilash, kelajakda ham o'zining olayotgan daromad miqdorining pasaymasligi va qilayotgan xarajatlarini doimiy ravishda nazoratga olish uchun oldindan budget rejalarini tuzib chiqishadi.

Bizning fikrimizcha, har bir tuzilayotgan budget korxonalarining kelajak uchun mo'ljallangan miqdoriy rejalarini desak bo'ladi va har biri shu korxonaning o'z ehtiyojlari asosida shakllantiriladi.

### 1-jadval: Iqtisodchi olimlar tomonidan "budget" tushunchasi berilgan ta'riflar

Mualliflar	Ta'riflar
A.X.Pardayev, Z.A.Pardayeva	Budget rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirishdan oldin tuziladigan moliyaviy hujjat
B.A.Xasanov, A.A.Xashimov	Budgetlashtirish korxonaning ma'lum davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish
E.A. Anankina, S.V. Danilochkin, N.G.Danilochkin	Budget korxonaning yaxlit yoki alohida bo'limlari faoliyatini miqdoriy aks etgan rejasi

<sup>8</sup> D.L.Flesher, T.K. Flesher. Article. Short history of budgeting. 1-1979

<sup>9</sup> B.A.Xasanov, A.A.Xashimov. Boshqaruv hisobi. Darslik. Toshkent-2013.

Budgetlashtirishni amalga oshirishda korxonaning oldingi davrdagi ishlab chiqarish hajmi hamda ishlab chiqarish uchun korxonaga qancha xarajat qilganligi va sotishdan keyin qancha daromadga ega bo'lganligi asosida kelgusi davr uchun korxonalar moliyaviy budget tuzishadi. Agarda korxonaga yirik ishlab chiqaruvchi va o'z filiallariga ega bo'lsa, budget tuzishda har bir filialdagi ma'lumotlar sifatli, takomillashgan holda va tezlik bilan filial menejerlari tomonidan asosiy menejerlarga taqdim etilishi kerak bo'ladi.

Korxonada budgetlashtirish amalga oshirish bu korxonaning kelajakdagi rejalari haqida korxonaga rahbarlari, bo'lim boshliqlari shuningdek korxonada ish faoliyatini nazorat qiluvchi boshqa shaxslarga rasmiy axborot yetkazib berish sanaladi. Korxonaning budgetini tuzish menejerlardan daromadlar va xarajatlarga bo'yicha oldindan rejalashtirishni talab qiladi.


Korxonada budget tuzish quyidagi omillarga e'tibor berish kerak:

1. Budgetni tuzishda foydalanilgan farazlar;
2. Korxonaning bozordagi o'rni;
3. Uzoq va qisqa muddatli moliyaviy maqsadlar;
4. Korxonaga har bir bo'limining strategik rejani qo'llab-quvvatlash darajasi.

Korxonaga doimiy ravishda budgetlashtirishni amalga oshirsa, unda oldindan tuzilgan budget hisoboti va haqiqiy natijalarni taqqoslash imkoniyati paydo bo'ladi.

Haqiqiy natijalar va oldindan tuzilgan budget hisoboti o'rtasidagi farq orqali korxonaga qancha xarajat tejashi yoki qancha ortiqcha xarajat qilayotganligini doimiy ravishda korxonaga boshqaruvchilari uchun kuzatish imkoniyatini beradi. Budget korxonaning moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda tuziladi. Agarda korxonaning haqiqiy xarajatlari tuzilgan budget ko'rsatilgan xarajatlardan past bo'lsa bu korxonaga uchun yaxshi bo'ladi va aksincha.

Agar korxonaga yirik ishlab chiqaruvchi va ko'plab filiallarga ega bo'lsa korxonada tuzilayotgan budget hisoboti quyidagi filiallardan yuqori boshqaruv tizimiga ma'lumotlarni izchil, tez va sifatli taqdim etish orqali amalga oshiriladi.



### 1-rasm. Korxonaning boshqaruv shakli

Korxonada amalga oshirilayotgan har operatsiya quyi boshqaruv tizimidan yuqori boshqaruv tizimiga yo'naltiriladi va yuqori boshqaruv tizimida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Quyi boshqaruv tizimi operatsion tizim deb ham nomlanadi bu tizimda korxonaning ishlab chiqarish jarayonlaridagi vaziyat, yuqori boshqaruv tomonidan belgilangan strategik qarorlarni amaliyotga joriy qilish, yaratilgan mahsulot sifatini tekshirish, ish jarayonlarini rejalashtirish, nazorat qilish va ishchilarga topshiriqlarni taqsimlash vazifalari amalga oshiriladi. Quyi boshqaruvda menejerlar bevosita ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq vazifalarni bajarganlari va bu haqida hisobotlarni yuqori boshqaruvdagi menejerga to'g'ri, aniq va tezkorlik bilan taqdim etish yuqori boshqaruv tizimida tuzilayotgan budget aniqligini oshirish uchun xizmat qiladi shuningdek, quyi boshqaruvdagi menejerlarga bo'lgan ishonch ortadi lekin quyi boshqaruvdagi menejerlar yuqori boshqaruvdagi menejerlar tomonidan tuziladigan budgetning strategik rejasini to'la tushina olmasliklari mumkin.

Rejalashtirish boshqaruv funksiyalaridan biri hisoblanadi, kelgusidagi faoliyatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni aniqlash va belgilash hisoblandi. Reja turlari 3 turga bo'linadi va har bir rejani amalga oshirish muddati belgilangan.

### 2-jadval: Reja turlari

Reja turlari		
Operativ	O'rta muddatli	Strategik
1 yilgacha	3-5 yilgacha	5 yil va undan ko'proq
Subyekt( korxon) maqsadlariga erishish bilan bog'liq joriy reja	Korxonaning maqsadlariga mo'ljallangan dasturlarini ishlab chiqish yordamida amalga oshiriladi	Strategik rejani tuzishda korxonaning barqaror holatini saqlash va o'z taxmoniga ega bo'lish, foydasini maksimalashtirish va rentabillik ko'rsatkichini oshirish kabi vazifalar belgilanib olinadi.


Korxonalar( kompaniya) kelajakdagi turli xil o'zgarishlarga moslasha olishi uchun aylanuvchi budgetdan foydalanishadi va doimiy tarzga yangilanib turadi. Odatda korxonalarining maqsadlariga erishish bir necha yil vaqt olsa, aylanuvchi budget har oyda o'zgaradi ya'ni budgetda oldingi oy o'tgani sari yangi oy yoki chorak qo'shib olinadi.

### 2-rasm: Aylanuvchi budgetning choraklar bo'yicha o'zgarishi

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	
1	Choraklik aylanuvchi budget									
2	1-yil				2-yil					
3		chorak 1	chorak 2	chorak 3	chorak 4	chorak 1	chorak2	chorak 3	chorak 4	
4	Dastlabki yillik budget	→								
5	Aylanuvchi budget 1-yil/2-chorak	→								
6	Aylanuvchi budget 1-yil/3-chorak	→								
7	Aylanuvchi budget 1-yil/4-chorak	→								
8	Aylanuvchi budget 2-yil/1-chorak					→				

Korxonada tuzilayotgan budget rejasi korxon va korxon ish faoliyatini yurituvchi har bir menejerlar qay darajada harakat qilayotganlarini ifodalaydi. Odatda, menejerlarning harakatini nazoratida bo'lgan xarajat va daromadlarini yaxshi boshqara olishi orqali baholanadi va aksincha.

### 3-rasm: Budget turlarining turkumlanishi



Har bir ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bosh budget tuzadilar, u o'z navbati 2 turga bo'linadi: operatsion va moliyaviy budget.

Operatsion budgetlar asosan korxonaning quyi boshqaruv qismida amalga oshiriladigan operatsiyalarning budgetini tuzishda foydalaniladi va quyidagi turlarga bo'linadi:

- Sotish budgeti;
- Ishlab chiqarish budgeti;
- Zaxiralar budgeti;
- Materiallarni xarid qilish va foydalanish budgeti;
- Mehnat haqi xarajatlari budgeti;
- Umumishlab chiqarish xarajatlari budgeti;
- Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar budgeti;
- Davr sarflari budgeti.

Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarining sotilishi, bahosi, davrlar bo'yicha qanday hajmlarda sotilishi va qancha pul tushum kelib tushishini sotish budgetida qayd etiladi. Ishlab chiqarish budgeti bu sotish va zahiralalar budgetiga asosan mahsulot ishlab chiqarish hajmi choraklar yoki davrlar bo'yicha aniqlanadi. Zaxiralar budgetini tuzishda esa sotish budgetiga asosan ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlarning davr boshi va oxiridagi qoldiqlari asosida tuziladi. Materiallarni xarid qilish va foydalanish budgetini tuzishda esa korxonada ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiradigan materiallar hajmi va ularning qiymatining hisob-kitoblari olib boriladi.

Moliyaviy budgetda esa bu korxonada sotiladigan mahsulot va xizmatlardan keladigan pul oqimi, korxonaning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlariga yo'naltirilgan investitsiyalar hisobi yuritiladi va ularga quyidagilar kiradi:

- pul mablag'lari budgeti;
- kapital sarflar budgeti;
- foyda budgeti.

Moliyaviy budget rejalashtirilayotgan davr uchun pul mablag'lari oqimini boshqarish, korxonaning asosiy vositalari, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlariga qilinadigan investitsiyalar hisobini shuningdek rejalashtirilayotgan davrda kutilayotgan foydani "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" da qayd etish orqali foyda budgeti tuziladi.

Korxonada sotish budgetini tuzish, kelgusi davrda korxonada qancha birlikdagi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqishi, sotishi va har bir birlikdagi tovar va xizmatlarning narxlari qanday bo'lishini ko'rsatadi. Shuningdek, sotuvdan tushadigan pul tushumlarining miqdori va vaqt(chorak)ini aniqlashda foydalaniladi.

Misol uchun, "Imperial Umbrellas" brendi asosida mahalliy soyabon ishlab chiqaruvchi korxonani oladigan bo'lsak, 4 chorak davrida korxonada qancha birlikda tovar ishlab chiqishi va shu budget davrida sotish narxlari budget rejasida ko'rsatib o'tiladi va moliyaviy davrdagi erishadigan umumiy daromadlarining prognozlarini amalga oshiriladi.

#### 4-rasm: Imperial Umbrellas kompaniyasining sotuv budgeti

	A	B	C	D	E
1	<b>Imperial Umbrellas, Sotuv budgeti, 2024-yil 31-dekabr yakunlangan yil uchun</b>				
2		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
3	Kutilgan sotuv birligi	1200	2000	2000	2500
4	Sotuv narxi( bir birlik uchun)	50 000 so'm	55 000 so'm	45000 so'm	50000 so'm
5	Umumiy sotuv daromadi	60 000 000 so'm	110 000 000 so'm	90 000 000 so'm	125 000 000 so'm

Yuqoridagi jadvalda, **Imperial Umbrellas** kompaniyasining moliyaviy davrlardagi sotuv budgeti ko'rsatib o'tilgan, har bir chorakda ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan mahsulotlar birligi qayd etiladi, shu davrdagi mahsulot birligining sotuv narxi belgilanadi va ular ko'paytmasi orqali har bir chorakdagi umumiy sotuv daromadi hisoblab chiqiladi. Yuqoridagi hisob kitoblarga ko'ra **Imperial Umbrellas** kompaniyasining 2024-yil 31-dekabr moliyaviy holatiga 385 000 000 so'm sotuv daromadiga erishishganligi ta'kidlashimiz darkor.

Ishlab chiqarish budgetida sotish hajmi va korxonadagi zaxiralar bo'yicha hisob kitoblar olib boriladi. Bozorda mavjud talabni qondirish uchun zarur bo'lgan inventar(asosiy vositalar, aktivlar va nomoddiy aktivlar) miqdorini aniqlash orqali sotuv hajmi tahmin qilinadi. Korxonalar ko'p miqdorda inventar qilmaydi. Chunki zaxiradagi inventarlarni saqlash xarajatlarini oshib ketishi korxonalar rahbarlari va menejrlari xohlamaydi, ularning asosiy maqsadlari o'z foydasini maksimalashtirish, xarajatlarini esa minimallashtirishdan iborat bo'ladi. Odatda menejerlar budgetni moslashuvchan qilishga harakat qilishadi, kerakli vaziyatda uni kengaytirish yoki qisqartirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar zahirasiga ega bo'lishni xohlaydilar.

Odatda, ishlab chiqarish korxonalarida boshlang'ish va yakuniy inventarlar hisobi ham yuritiladi. Bu har bir davrda korxonalar qancha birlik mahsulot ishlab chiqarish kerakligi aniqlash uchun foydalaniladi. Agar **Imperial Umbrellas** kompaniyasining boshlang'ich inventari 300 ta bo'lsa, 2-chorakda korxonalar 2000 ta mahsulot ishlab chiqishi kutilgan buning 20%i yakuniy inventar hisoblanadi.

### 5-rasm: Imperial Umbrellas kompaniyasining ishlab chiqarish budgeti

	A	B	C	D	E
1	<b>Imperial Umbrellas, Ishlab chiqarish budgeti, 2024-yil 31-dekabr yakunlangan yil uchun</b>				
2		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
3	Kutilgan sotuv birligi	1200	2000	2000	2500
4	Yakuniy inventar	400	400	500	1 240
5	Umumiy talab qilingan birlik	1600	2400	2500	3740
6	Boshlang'ich inventar	0	300	400	500
7	Ishlab chiqarish hajmi	1600	2100	2100	3240

Ishlab chiqarish budgetini tuzishda, qancha birlik mahsulot ishlab chiqarish kerakligini aniqlashda, kutilayotgan sotuvlar hajmiga istalgan yakuniy inventar miqdori qo'shiladi va bu davrdagi jami birliklar soni qo'shiladi va boshlang'ish inventar miqdori ayirib tashlanadi bu hisob-kitobni amalga oshirishdan maqsad ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan birliklar hajmini hisoblash uchun foydalaniladi.

Materiallar budgetini tuzish ham ishlab chiqarish budgeti bilan uzviy bog'liq, chunki korxonalar yoki kompaniyalar o'zida ishlab chiqarayotgan har bir birlik mahsulotga qancha miqdorda material kerakligini hisoblash uchun amalga oshiriladi.

Korxonalar materiallar budgetini tuzishda yakuniy inventarga ham e'tibor qaratadi, chunki korxonalar o'zida mahsulot ishlab chiqarish yoki qancha miqdorda material sotib olishini aniqlash uchun o'zida qancha zaxirasi mavjudligini bilish uchun foydalaniladi. O'z navbatida o'z zaxiralarini nazorat qilish ortiqcha xarajat qilishni oldini oladi.

### 6-rasm: Imperial Umbrellas kompaniyasining Materiallar budgeti

	A	B	C	D	E	F
1	<b>Imperial Umbrellas, Material budgeti, 2024-yil 31-dekabr yakunlangan yil uchun</b>					
2		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	Umumiy
3	Tovar birligi	1200	850	1890	2870	6810
4	Har bir birlik uchun material	1,7	1,7	1,7	2	1,7
5	Umumiy miqdor( ishlab chiqarish uchun)	2040	1445	3213	4879	11577
6	Yakuniy inventar	289	642	976	1240	1240
7	Umumiy material( talab qilingan)	2329	2087	4189	6119	12817
8	Boshlang'ich inventar	0	289	642	976	0
9	Talab qilingan materialning miqdori	2329	1798	3547	5143	12817
10	Xarajat ( har bir miqdor uchun, so'm)	9800	9800	9800	9800	9800
11	material xarid qilishning umumiy xarjati, so'm	22824200	17620400	34760600	50401400	125606600

Materiallar budgetini tuzishda moliyaviy yildagi ishlab chiqarilgan tovarlar birligi kiritib olinadi va har bir birlik uchun qancha miqdorda material ketishligi aniqlab olinadi. Bunda tovar birligini har bir birlik uchun sarflangan material miqdoriga ko'paytirilsa jami sarflanadigan materiallar miqdori aniqlanadi. Keyingi choraklarda ishlab chiqariladigan tovar birligiga boshlang'ich inventar(zaxira) bo'lgan mahsulot miqdori shu chorak uchun yakuniy inventar hisoblanadi.

Materiallar budgetini tuzishdan maqsad korxonada har bir davr uchun qancha birlikda mahsulot(tovar) ishlab chiqishi, omborda qancha zaxira miqdori mavjudligini kuzatib borish, mavjud zaxiralari asosida qancha birlik ishlab chiqarishi zarurligi va ularning asosida boshqaruv qarorlarini to'g'ri qabul qilish uchun xizmat qiladi.

### Xulosa

Korxonada budgetlashtirish ya'ni budget rejasini tuzish, korxonaning kelgusi davrlardagi xarjatlari va daromadlarini prognoz qilish uchun amalga oshiriladi. Budgetlashtirishdagi asosiy dolzarblik bu korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, korxonada ishlab chiqarotgan tovarlarga sarflanadigan resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi shuningdek, korxonaga investitsiya oqimining kirib kelish imkonini oshirishga yordam beradi. Budgetlashtirishni amalga oshirilganda kelajakda kutilishi mumkin xatarlarni kamaytirishga yordam beradi, o'z navbatida investorlarning korxonaga investitsiya qilish xohishi paydo bo'ladi chunki har bir investor o'z kapitalidan yuqori foyda olishni xohlaydi.

Korxonada to'g'ri budgetlashtirishni amalga oshirish va quyi boshqaruvdagi menejerlarning operatsion jarayondagi ma'lumotlarni tez, sifatli va takomillashgan holda yuqori boshqaruvga yetkazishi kelgusida boshqaruv qarorlari yuqori aniqlikda qabul qilish imkonini beradi.

### Foydalanilgan manbalar

1. A.Kessel. Apples's delay of Siri AI features could hold back iPhone sales. March 10,2025.
2. D.L.Flesher, T.K. Flesher. Article. Short history of budgeting. 1-1979
3. B.A.Xasanov, A.A.Xashimov. Boshqaruv hisobi. Darslik. Toshkent-2013.
4. M.Franklin, P.Graybeal, D.Cooper. Principles of Accounting, Volume 2: Managerial Accounting
5. F.T.Abduvaxidov, I.N.Qo'ziyev, Sh.X. Dadabayev. Buxgalteriya hisobi. Darslik- T.: TDIU, 2019. - 403 b.

## SPECIFIC ASPECTS OF PREPARING A COMPANY BUDGET

**Sirojiddinov K.I.**

associate professor

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

ORCID: 0000-0002-7851-5990

**Tursinbayev A.N.**

student

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

e-mail: azizbektursinbayev5gmail.com

**Annotation:** this article reflects on the processes and essence of budgeting carried out at the enterprise. The implementation of budgeting at the enterprise has been considered in the correct adoption of future management decisions, taking into account the possible costs of the enterprise in the future and its importance in achieving high income and financial stability.

**Keywords:** Management Accounting, Budgeting, Financial Stability, income and expenses of the enterprise, decision-making

# SAPALI TURMISLIQ XIZMETLER KÓRSETIWDE SANLI PLATFORMALARDAN PAYDALANIWDIŃ ABZALLIQLARI

**Erejepova B.A.**

kafedra docenti

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti  
e-mail: erezepovabibisara159@gmail.com

**Davlatboeva I.O.**

Menedjment tálim baǵdarı student

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti  
e-mail: davladboyevairoda@gmail.com

**Annotaciya:** Bul maqalada sapalı turmıslıq xızmetler kórsetiwde sanlı platformalardan paydalanıwdıń abzallıqları sáwlelendirilgen. Házirgi sanlı transformaciya dáwirinde xızmet kórsetiw tarawınıń nátiyjeliligi, jedelligi hám ashıq-aydınlıǵın támiyinlewde elektron sistemalar hám onlayn platformalardıń áhmiyeti talqılandı. Izertlewde sanlı xızmetlerdiń tiykarǵı abzallıqları - qolaylıq, sapa ústinen qadaǵalaw, qárejetlerdiń azayıwı, bántlikti arttırıw hám aymaqlıq sheklewlerdi saplastırıw imkaniyatları kórsetip ótildi. Sonday-aq, Qaraqalpaqstan hám Ózbekstan sharayatında sanlı platformalardan keńnen paydalanıw arqalı xızmet kórsetiw sistemasın rawajlandırıw keleshegi ashıp berildi. Maqala nátiyjeleri xızmet kórsetiw tarawında innovaciyalıq qatnastı ámelge asırıw hám xalıqtıń turmıs dárejesin jaqsılaw ushın ámeliy áhmiyetke iye.

**Tayanış sózler:** turmıslıq xızmetler, sanlı platformalar, sapalı xızmet kórsetiw, sanlı transformaciya, innovaciyalıq texnologiyalar, ashıq-aydınlıq, bántlik, qarıydarlardıń qolaylıǵı, ekonomikalıq nátiyjelilik.

## Kirisiw

Búgingi kúnde sanlı ekonomikanıń jedel rawajlanıwı barlıq tarawlarǵa, sonıń ishinde, turmıslıq xızmetler tarmaǵına da kúshli tásir kórsetpekte. Xalıqqa sapalı, operativ hám qolaylı xızmet kórsetiw básekige shıdamlı ekonomikanıń áhmiyetli faktorlarınan biri bolıp esaplanadı. Dástúriy xızmet kórsetiw usılları áste-aqırın sanlı texnologiyalar menen bayıtılmaqta hám bul process xalıqtıń turmıs dárejesin arttırıwǵa xızmet etpekte. Turmıslıq xızmetler tarmaǵında sanlı platformalardan paydalanıw xızmetlerdiń jedelligi hám nátiyjeliligin arttıradı, tutınıwshı hám xızmet kórsetiwshi arasındaqı baylanıstı jeńillestiredi hám xızmet sapası ústinen qadaǵalaw imkaniyatın jaratadı. Ásirese, pandemiyanıń keyingi dáwirde sanlı xızmetlerge bolǵan talap keskin artqanı, mobil qosımshalar, onlayn buyırtpa sistemaları hám elektron tólem qurallarınıń keńnen qollanılıp atırǵanı baqlanbaqta. Usı kózqarastan, sanlı platformalar arqalı sapalı turmıslıq xızmetler kórsetiw tek ǵana ekonomikalıq nátiyjelilikti támiyinlep qoymastan, al xalıqtıń kúndelikli turmısında qolaylıqlar jaratadı, jańa jumıs orınların jaratadı hám jámiyette sanlı mádeniyattı qalıptestiriwge úles qosadı. Sol sebepli, bul maqalada turmıslıq xızmetlerde sanlı platformalardan paydalanıwdıń abzallıqları, olardıń ekonomikalıq hám sociallıq tásiiri jáne rawajlanıw keleshegi talqılanadı.

## Ádebiyatlardı sholiw

Axmedova M.Sh. "Ózbekstanda turmıslıq xızmet kórsetiw sistemasın rawajlandırıwdıń ekonomikalıq tiykarları" (PhD dissertaciya, TDIU, 2021, 140 b.) Bul izertlewde avtor turmıslıq xızmetler tarawın rawajlandırıwdıń ekonomikalıq mexanizmlerin úyrenip shıqqan. Ol xalıqtıń turmıslıq talapların qanaatlandıırıwda xızmetlerdiń sapasını arttırıw, jańa jumıs orınların jaratıw hám ekonomikalıq nátiyjelilikti támiyinlew zárúrligin atap ótedi. Sonday-aq, M.Sh.Ahmedova xızmet

kórsetiw sistemasında jeke menshik sektor jumısın keńeytiw, bazar mexanizmlerin engiziw hám aymaqlarda xızmetler tarmaǵın keńeytiw máselelerine itibar qaratadı[1]. Sayfullaeva N.M. "Ózbekstanda xızmet kórsetiw tarawın modernizaciyalaw baǵdarları" (Tashkent: Ekonomika, 2019, 215 b.) atlı miynetinde avtor xızmetler tarawın modernizaciyalawdin tiykarǵı baǵdarların ashıp beredi. Onda zamanagóy texnologiyalardı engiziw, xızmetler túrin keńeytiw hám olardıń sapasın arttırıw boyınsha ilimiy usınıslar berilgen[2]. Ásirese, xızmet kórsetiwde sanlı texnologiyalardıń engiziliwi hám bul processtıń ekonomikalıq nátiyjelilikke tásiri tolıq sáwlelendirilgen. Gapurov Sh.T. "Xızmatlar sohasini innovacion rivojlantirish masalaları" (Iqtisodiyot va talim jurnali, No3, Toshkent, 2020, b. 45-52) atlı maqalasında xızmetler tarawında innovaciyalıq jantasıwları qollanıw hám jana texnologiyalar tiykarında xızmet kórsetiwde jetilistiriw máseleleri úyrenilgen[3]. Avtorıń pikirinshe, sanlı platformalar hám zamanagóy texnologiyalardı engiziw xızmetlerdiń nátiyjeliligini arttırıp ǵana qalmastan, xalıqtıń talaplarına jedel juwap beriwge de járdem beredi. OECD (Publishing, 2020) xalıqaralıq esabatta sanlı ekonomikanıń global tendenciyalari, sanlı texnologiyalardı hár qıylı tarawlarǵa engiziw processleri hám nátiyjeleri taqıllanǵan. Esabatta sanlı platformalardıń ekonomikalıq ósiw, xızmetlerdiń sapası hám xalıqaralıq básekege shıdamlılıqqa tásiri haqqında áhmiyetli maǵlıwmatlar berilgen[4]. Jáhán bankiniń "Digital Uzbekistan 2030: Development Strategy Report" (Vashington, 2021) esabatında Ózbekstanda sanlı ekonomikanı rawajlandırıw boyınsha strategiyalıq baǵdarlar belgilep berilgen. Atap aytqanda, xalıqqa xızmet kórsetiwde sanlı texnologiyalardan paydalanıw, mámleketlik xızmetlerdi elektron túrge ótkeriw, turmıslıq xızmetlerdiń sapasın arttırıw hám olardı zamanagóy platformalar arqalı xalıqqa jedel jetkeriw sıyaqlı tiykarǵı wazıypalar atap ótilgen[5]. Brynjolfsson E., McAfee A. "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies" (New York: W.W. Norton & Company, 2014) shıǵarmasında avtorlar sanlı texnologiyalar hám jasalma intellektiń ekonomika hám xızmetler tarawına kórsetken tásirin tereń talqıladı[6]. Olardıń atap ótiwinshe, sanlı platformalar tek ǵana óndiris procesini emes, al xızmet kórsetiw sistemasın da túp-tiykarınan ózgerтип atır. Sonıń menen birge, jańa texnologiyalar miynet bazarı, bántlik hám sociallıq turmısqa da sezilerli tásir kórsetpekte.

### **Izertlew materialları hám usılları / literature review.**

Izertlew procesinde sapalı turmıslıq xızmetlerdi kórsetiwde sanlı platformalardan paydalanıw nátiyjeliligini bahalaw ushın ekonomikalıq-statistikalıq hám ekonomikalıq-matematikalıq usıllardan paydalanıldı. Atap aytqanda, korrelyaciyalıq hám regressiya analizi járdeminde sanlı xızmetler rawajlanıwınıń tiykarǵı kórsetkishleri hám olardıń xalıqqa tásiri úyrenildi. Model dúziwde eń áhmiyetli basqıshlardan biri - tańlap alınǵan faktorlar hám nátiyjeli kórsetkish arasındaqı baylanıstı anıqlaw hám olardı ekonomikalıq mazmunǵa iye anlatpa arqalı tastıyıqlawdan ibarat boldı. Usı tiykarda sapalı xızmet kórsetiw kólemi hám nátiyjeliligine sanlı texnologiyalar, elektron tólem sistemaları, internet qamtıp alıwı, jeke menshik sektordıń qatnasıwı hám qarıydarlar sanınıń ósiwi sıyaqlı faktorlardıń tásiri bahalandı. Izertlewde respublika kóleminde sanlı platformalardan paydalanıwdıń turmıslıq xızmetler kórsetiwge tásirin anıqlaw ushın tómendegi faktorlar tańlap alındı.

Keste maǵlıwmatları sonı kórsetedi, keyingi tórt jıl ishinde sanlı platformalardan paydalanıw nátiyjesinde turmıslıq xızmetler nátiyjeliligi sezilerli dárejede artqan. Atap aytqanda, buyırtpalardı orınlaw múddeti 2020-jıldıǵı 3 kúnnen 2023-jılı 1,5 kúнге qısqardı, bul bolsa xızmetlerdiń operativligini arttırıw menen birge qarıydarlardıń qanaatlanıwshılıǵın da kúsheytti. Sonday-aq, onlayn buyırtpalardıń úlesi 25% ten 72% ke shekem kóterilgen, bul bolsa xalıqtıń sanlı xızmetlerden paydalanıwǵa bolǵan isenimi jıldan-jılǵa artıp atırǵanınan dárek beredi. Onlayn tólemlerdiń úlesi de 18% ten 68% ke shekem artıp, naq pulsız esap-sanaq sistemalarınıń ǵalabalasıp atırǵanını kórsetpekte.

## 2020-2023-jillar dawamında sanlı platformalardan paydalanıw dinamikası hám olardıń turmıshlıq xızmetler kórsetiwge tásirini

Kórsetkishler	2020- jil	2021- jil	2022- jil	2023- jil
Buyırtpanı orınlaw ortasha múddeti	3 kún	2,5 kún	2 kún	1,5 kún
Onlayn buyırtpalar úlesi (%)	25 %	38 %	55 %	72 %
Klientler sanınıń ósiwi (%)	100	135	180	230
Onlayn tólemler úlesi (%)	18 %	32 %	50 %	68 %
Klientler qanaatlanıwshılıq dárejesi (%)	70 %	78 %	85 %	91 %
Kárxana qárejetleriniń azayıwı (%)	5 %	9 %	14 %	20 %

Qarıydarlar sanı 2020-jildaǵı bazalıq kórsetkishke salıstırǵanda 230 procentke shekem artıp, tarawda xızmetler kóleminiń keńeyiwi hám básekiniń kúsheyiwiniń támiyinlegen. Nátiyjede qarıydarlardıń qanaatlanıw dárejesi 70% ten 91% ke shekem kóterilgen. Sonıń menen birge, kárxanalardıń qárejetleri de 20 procentke shekem azayıp, nátiyjeliliktiń artqanın ayqın tastıyıqlaydı. Ulıwma alganda, tallawlar sonı kórsetpekte, sanlı texnologiyalardı engiziw tek ǵana xızmet kórsetiw tezligin hám qolaylılıǵın arttırıp qoymastan, al ekonomikalıq nátiyjelilikke de sezilerli unamli tásir kórsetpekte. Sonlıqtan, sanlı platformalardan paydalanıw turmıshlıq xızmetler tarawın rawajlandırıwdıń eń áhmiyetli faktorlarınan biri sıpatında tán alınıwı múmkin. Sapalı turmıshlıq xızmetler kórsetiwde sanlı platformalardan paydalanıwdıń abzallıqları júdá keń. Búgingi kúnde Ózbekstanda sanlı texnologiyalar tiykarında qalıplesip atırǵan jańa xızmet modelleri, sonıń ishinde, "super-app" koncepciyası barǵan sayın ǵalaba en jaymaqta.

Bunday qosımshalar bir waqıttıń ózinde buyırtpa qabil etiw, tólemdi ámelge asırıw, jetkerip beriw hám qosımsha xızmetlerdi de usınadı. Nátiyjede qarıydarlar ushın waqıt hám qarjı únemlenedi, xızmet kórsetiw procesi bolsa ápiwayılasadı. Sonıń menen birge, sońǵı jillarda jeke menshik xızmet kórsetiwshi subyektlardıń kóbeyiwi sanlı platformalardan paydalanıwdı zárúrlikke aylandırdı. Bul bolsa kishi kárxanalardıǵa da iri kompaniyalar menen teń bákilesiw imkaniyatın berip, xızmetler sapasın arttırıwǵa hám bahalardıń salıstırmalı turaqlasıwına xızmet etpekte.

Sonıń menen birge, mámleketlik siyasat sheńberinde de sanlı texnologiyalardı keńnen engiziw ayrıqsha itibarda tur. Sonıń ishinde, "Sanlı Ózbekstan - 2030" strategiyasında turmıshlıq xızmetler tarawında IT sheshimlerdi qollanıw tiykarǵı baǵdarlardan biri sıpatında belgilengen. Elektron licenziyalaw, onlayn dizimnen ótiw hám elektron kontrakt sistemalarınıń engiziliwi xızmet kórsetiw procesiniń ashıq-aydınlıǵı hám nátiyjeliliginiń támiyinlemekte. Bunnan tısqari, sanlı platformalar jámiyetlik turmısqa da sezilerli tásir kórsetpekte. Atap aytqanda, onlayn xızmetler arqalı kóplegen jaslar frilans tiykarında bántlikke iye bolıp atırǵan bolsa, hayal-qızlar úy sharayatında xızmet kórsetiw arqalı ekonomikalıq jaqtan belsendi bolıw imkaniyatına iye bolmaqta.

Global kólemde alıp barılǵan izertlewler de bul processtiń keleshegi bar ekenligin tastıyıqlaydı. Máselen, "McKinsey" hám "Statista" maǵlıwmatlarına bola, jaqın jillarda turmıshlıq xızmetlerde sanlı sheshimlerden paydalanıw kólemi eki eseden zıyat keńeyiwi boljanbaqata. Ózbekstan tájiriyesi de usı global tendenciylardıǵa sáykes túrde qalıplesip, milliy xızmet kórsetiw sistemasınıń nátiyjeliligini arttırıwǵa xızmet etpekte.

### Juwmaq

Juwmaqlap aytqanda, ótkerilgen izertlew nátiyjeleri sonı kórsetedi, sapalı turmıshlıq xızmetlerdi kórsetiwde sanlı platformalardan paydalanıw xızmet kórsetiw processlerin jedellestiredi, qárejetlerdi azaytadı hám qarıydarlardıń qanaatlanıw dárejesin arttıradı. 2020-2023-jillar kesiminde kórsetkishler analizi sonı tastıyıqlaydı, onlayn buyırtpalar hám elektron tólemlerdiń úlesi keskin artqan, buyırtpalardı orınlaw múddeti bolsa qısqarǵan. Nátiyjede kárxana hám shólkemlerdiń bákemligine shıdamlılıǵı artıp, xızmetlerdiń sapa dárejesi jaqsılǵan. Sanlı texnologiyalardan paydalanıw xalıqqa qolaylıqlar jaratıp ǵana qalmastan, ekonomikalıq

nátiyelilikti de támiyinlemekte. Atap aytqanda, xızmet kórsetiwdiń ashıq-aydınlığı artıp, jańa jumıs orınları payda bolmaqta, bazarda salamat báseki ortalığı qalıplespekte. Sol sebepli, turmıslıq xızmetler tarawında sanlı platformalardan keń kólemde paydalanıw mámleketimiz ekonomikasınıń turaqlı rawajlanıwınıń áhmiyetli faktorlarınan biri sıpatında qaralıwı múmkin.

### Ádebiyatlar dizimi

1. Axmedova M.Sh. O‘zbekistonda maishiy xızmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. // diss. PhD. - T.: TDIU, 2021. - 140 b.
2. Sayfullayeva N.M. O‘zbekistonda xızmat ko‘rsatish sohasini modernizatsiyalash yo‘nalishlari. - T.: "Iqtisodiyot," 2019. - 215 b.
3. Gapurov Sh.T. Xızmatlar sohasini innovacion rivojlantirish masalalari. // Ekonomika hám bilimlendiriw jurnalı, No3. - Tashkent, 2022. - S. 45-52.
4. OECD. Digital Economy Outlook. – Paris: OECD Publishing, 2020.
5. World Bank. Digital Uzbekistan 2030: Development Strategy Report. – Washington, 2021.
6. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.

## THE ADVANTAGES OF USING VARIOUS PLATFORMS IN PROVIDING DATA PROCESSING SERVICES

**Erejepova B.A.**

Associate professor  
Karakalpak state university  
e-mail: erezepovabibisara159@gmail.com

**Davlatboeva I.O.**

student  
Karakalpak state university  
e-mail: davladboyevairoda@gmail.com

**Annotation:** This article highlights the advantages of using digital platforms in providing quality household services. In the era of digital transformation, electronic systems and online platforms play an important role in ensuring the efficiency, speed, and transparency of the service sector. The study emphasizes the main benefits of digital services, such as convenience, quality control, cost reduction, employment growth, and the elimination of regional barriers. In addition, the prospects of developing the service sector through the use of digital platforms in Karakalpakstan and Uzbekistan are discussed. The results of the article are of practical importance for implementing innovative approaches in the service sector and improving the standard of living of the population.

**Keywords:** household services, digital platforms, quality service delivery, digital transformation, innovative technologies, transparency, employment, customer convenience, economic efficiency.



**08.00.15 – TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNES  
IQTISODIYOTI**

## ZAMONAVIY BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES INTEGRATSIYASI: NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI

**Isakov A.**

PhD, dotsent

Namangan davlat texnika universiteti

**Usmonov A.B.**

magistratura bosqichi 2-kurs talabasi

Turan International University

**Annotatsiya:** Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yirik va kichik biznes integratsiyasi mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Global raqobat, texnologik o'zgarishlar va iste'molchi talablarining tez o'zgarishi korxonalarini yagona holatda mustaqil faoliyat yuritishdan ko'ra hamkorlikka chorlamoqda. Yirik kompaniyalar katta moliyaviy va texnik imkoniyatlarga ega bo'lib, ommaviy ishlab chiqarish va eksportni tashkil eta oladi; kichik va o'rta korxonalar esa tez qaror qabul qilish, mahalliy bozor va iste'molchi talablari bilan ishlashda ustundir. Integratsiya jarayoni iqtisodiyotga nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy barqarorlik, yangi ish o'rinlari va innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Ushbu maqolada mavzuning nazariy asoslari, jahon tajribasi, O'zbekistonda qo'llab kelinayotgan amaliyotlar, amaliy va uslubiy yondashuvlar bilan bir qatorda muammolar va tavsiyalar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, iqtisodiy o'sish, integratsiya, win-win, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, Mittelstand, triple helix, muvozanatli o'sish.

### Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti tobora globallashib, integratsiya jarayonlari chuqurlashib bormoqda. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va yirik biznes sub'yektlarining o'zaro hamkorligi va integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes iqtisodiyotni jonlantirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yirik biznes esa iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri, yangi texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda peshqadam hisoblanadi. Shu bois, kichik va yirik biznes o'rtasidagi integratsiya masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb mavzuga aylangan.[5]

Nazariy jihatdan olganda, biznes integratsiyasi iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta'minlash, yangi bozorlarni egallash va innovatsiyalarni keng qo'llashga xizmat qiladi. Yirik biznes kuchli moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va xalqaro tajriba bilan ajralib tursa, kichik biznes esa moslashuvchanlik, tezkor qaror qabul qilish va iste'molchilar talabiga tez moslasha olish xususiyatiga ega. Ularning birlashuvi iqtisodiyotda muvozanatli o'sishni ta'minlaydi.[1,7]

O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, mamlakatimizda so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qariyb 52 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy bandlikning 70 foizidan ortig'ini ta'minlab bermoqda.[2]

Yirik biznes esa sanoat tarmoqlari, xususan, neft-gaz, kimyo, metallurgiya va avtomobilsozlik sohalarida yetakchi o'rin tutmoqda. Demak, ikki sektorning o'zaro integratsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotini yanada barqaror va raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi. Kichik va yirik biznesning amaliy hamkorligi ko'plab sohalarda ko'zga tashlanadi. Masalan, avtomobilsozlik sanoatida yirik korxonalar ehtiyot qismlarini ishlab chiqarishda kichik biznesga buyurtmalar

beradi. Qishloq xo‘jaligida esa yirik eksportyor kompaniyalar kichik fermer xo‘jaliklaridan mahsulot sotib oladi. Shu tarzda iqtisodiyotning turli sohalarida samarali integratsiya mexanizmlari shakllanmoqda.[3,6]

Integratsiyaning amaliy afzalliklariga to‘xtaladigan bo‘lsak, u avvalo resurslardan samarali foydalanishga imkon yaratadi. Kichik biznes uchun yirik korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari, marketing tarmoqlari va moliyaviy imkoniyatlaridan foydalanish muhim. Shu bilan birga, yirik biznes kichik korxonalardan moslashuvchanlik, innovatsion yondashuv va yangi g‘oyalarni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ko‘plab kichik korxonalar yirik eksportyorlar bilan kooperatsiya asosida hamkorlik qilib, mahsulotlarini xalqaro bozorga olib chiqmoqda. Bu esa ikki sektor uchun ham “win-win” vaziyatini yaratadi.[4]

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va yirik korporatsiyalar o‘rtasidagi hamkorlik turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Masalan, Germaniyada mashhur “Mittelstand” modeli mavjud bo‘lib [8,9], unda o‘rta va kichik korxonalar yirik kompaniyalar bilan mustahkam aloqada ishlaydi. Bu jarayon innovatsiyalarni tezroq joriy etish va yangi mahsulotlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. AQShda esa startaplar va yirik texnologik gigantlar o‘rtasidagi hamkorlik keng tarqalgan. Shu jihatdan olganda, O‘zbekiston ham xalqaro tajribani o‘rganib, milliy sharoitga mos integratsion mexanizmlarni ishlab chiqishi lozim.

### Uslubiy yondashuvlar

Uslubiy jihatdan qaraganda, integratsiya jarayonlarini samarali tashkil etish uchun davlatning ham faol ishtiroki talab etiladi. Chunki kichik biznesning imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, ular ko‘pincha moliyaviy resurslar va texnologiyalardan yetarli darajada foydalana olmaydi. Shu sababli davlat tomonidan kreditlar, grantlar, soliq imtiyozlari va infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim. Shu bilan birga, yirik biznesning ham mas‘uliyatli yondashuvi zarur bo‘lib, ular kichik korxonalar bilan sheriklikni uzoq muddatli istiqbolda tashkil etishi kerak.



Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning hisobotlariga ko‘ra, integratsiya jarayonlari mamlakatlarning yalpi ichki mahsulot o‘rishini o‘rtacha 3-4 foizga tezlashtirishi mumkin. Masalan, Jahon Banki ma‘lumotlariga ko‘ra, integratsiya siyosatini faol olib borgan mamlakatlarda kichik biznesning eksport hajmi 20-25 foizga oshgan. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bunday jarayonlarni rag‘batlantirish orqali milliy raqobatbardoshlikni kuchaytirishi mumkin.

Integratsiyaning yana bir muhim tomoni – bu ilmiy-innovatsion faoliyatdir. Bugungi kunda ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash zarur. Yirik korxonalar tadqiqot institutlari va kichik innovatsion korxonalar bilan hamkorlik qilgan holda yangi texnologiyalarni yaratishi va joriy etishi mumkin. Shu tarzda “triple helix” modeli – ya‘ni davlat, biznes va ilm-fan uchligining hamkorligi amalga oshiriladi. O‘zbekistonda IT-parklar va texnologik inkubatorlarning tashkil etilishi ham ana shu maqsadga qaratilgan.

### Statistik ma‘lumotlar va tahlil

O‘zbekiston davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda kichik biznes mamlakatdagi jami bandlikning 65 foizini ta’minlagan. Yirik korxonalar esa 35 foiz atrofida bandlik yaratgan. Bu raqamlar kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, eksport hajmlarining 30 foizi ham kichik tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekiston bandlik taqsimoti (2024)



Shu bilan birga, integratsiya jarayonlarida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, kichik biznesning moliyaviy resurslari yetishmasligi, kadrlar malakasining pastligi va texnologik yangiliklardan ortda qolishi shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat qo‘llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirishi, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirishi va kichik biznes subyektlariga innovatsion loyihalarda ishtirok etish imkonini yaratishi lozim.

### Xulosa

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va yirik biznesning integratsiyasi murakkab, ammo nihoyatda zarur jarayondir. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratadi, innovatsiyalarni tezlashtiradi va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shunday ekan, O‘zbekiston uchun ham bu yo‘nalishda izchil siyosat yuritish va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yana shuni ta’kidlash joizki, xalqaro tajribalarda ham ko‘rinadiki, mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati va barqaror rivojlanishi-dastavval tadbirkorlik faoliyatining qay yo‘sinda erkin va samarali tashkil etilganiga bog‘liq. Davlatning asosiy vazifalaridan biri, tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ularning oldidagi to‘siqlarni kamaytirishdan iboratdir.

Tadbirkorlik va ishlabarmonlik jamiyatda yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan birga raqobat muhitini kuchaytiradi hamda innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga turtki bo‘ladi. Mamlakatimizda o‘tgan yillarda ko‘plab tarmoqlarda yangibish o‘rinlari yaratildi. Bu davrlarda 230 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritildi, shundan 120 mlrd dollardan ortig‘i xorijiy sarmoyalardir. Shuni faxr bilan ayta olamizki, mamlakatimiz iqtisodiyoti 7.2%ga o‘tdi. Biznesda yaratilayotgan qulayliklar o‘laroq, tadbirkorlar ko‘payib, faoliyati kengayib boryapti. Misol uchun, 1600ta mikrokorxonaga 1 yil davomida kapital aylanmasini 10 mlrd so‘mdan oshirib, o‘rta korxonaga, 143 esa 100 mlrd so‘mdan oshirib, yirik korxonaga aylandi hamda 122ta kichik korxonaga yirik biznes safiga qo‘shildi. Biznesni “soya”dan chiqarish choralari natijasida 139000ta korxonada 811000ta ish o‘rinlari ko‘paydi. 273000ta korxonaga ish haqi fondi 22%ga oshirib, o‘tgan 2024 yili xususiy sektorda o‘rtacha oylik 4 mln. so‘mni tashkil qilgan holda, bugungi kunda 5 mln. so‘mga yaqinlashdi

Bugungi kunda, mamlakatimiz biznes sohasi vakillariga “Vatanimizning katta boyligi”- deya ta’rif berilyapti. Davlatimiz rahbari ancha yil oldin biznes olami vakillariga shiddatli islohotlar

avvalidayoq katta ishonch bildirgan edi. Bu ishonch ortida prezidentimizning katta qo'llab quvvatlashi, ishbilarmonlarga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar mujassamdir.

### Manbalar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va kichik biznesni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va farmonlari. – Toshkent, 2017–2024 yillar.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari. – Toshkent, 2022–2024 yillar.
4. Abduqodirov A.A., Xodjayev B.H. Biznes va tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2021.
5. Qodirov B.A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Rustamov D., Shodmonov Sh. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: Sharq, 2019.
7. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki materiallari. – Vashington, 2018–2024 yillar.
8. To'xtaboyev A.M. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
9. Rivojlangan davlatlar tajribasidan: Germaniya "Mittelstand" modeli va AQSh startap-ekotizimiga oid ilmiy maqolalar. – Elektron resurslar (Google Scholar, ResearchGate, 2020–2024).

**INTEGRATION OF LARGE AND SMALL BUSINESSES IN A MODERN MARKET  
ECONOMY: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS**

**Isakov A.**

PhD, Assoc.prof.  
Namangan state technical university

**Usmonov A.B.**

Master's student  
Turan International University

**Annotation:** in the context of a modern market economy, the integration of large and small businesses is of strategic importance for Uzbekistan's economy. Global competition, technological changes and rapid changes in consumer demand are encouraging enterprises to cooperate rather than operate independently in a single case. Large companies have great financial and technical capabilities and can organize mass production and export; small and medium-sized enterprises, on the other hand, are superior in working with fast decision-making, the local market and consumer demand. The integration process provides the economy not only with economic benefits, but also social stability, new jobs and innovative development opportunities. This article covers the theoretical foundations of the topic, the world experience, the practices used in Uzbekistan, problems and recommendations, as well as practical and methodological approaches.

**Keywords:** small business, economic growth, integration, win-win, Digital Economy, Innovation, Mittelstand, triple helix, balanced growth.

## O'ZBEKISTONDA YIRIK VA KICHIK BIZNES INTEGRATSIYASI

**Isakov A.**

PhD, dotsent

Namangan davlat texnika universiteti

**Usmonov A.B.**

magistratura bosqichi 2-kurs talabasi

Turan International University

**Annotatsiya:** Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yirik va kichik biznes integratsiyasi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash, raqobatni oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va bandlikni kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda global iqtisodiyot tezkor rivojlanmoqda, texnologiyalar va raqamli yechimlar iqtisodiy jarayonlarga chuqur ta'sir qilmoqda. Shu sharoitda, yirik kompaniyalar va kichik va o'rta biznes (KOB) o'rtasidagi hamkorlik samarali integratsiya orqali mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, ichki bozorni mustahkamlash, ish o'rinlarini yaratish va innovatsion yechimlarni tatbiq etishga yordam beradi. Ushbu maqolada yirik va kichik biznes integratsiyasining nazariy va uslubiy jihatlari, O'zbekistondagi so'nggi holat, xalqaro tajribalar va kelajak istiqbollari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** biznes, integratsiya, vertikal integratsiya, gorizontal integratsiya, bozor iqtisodiyoti, eksport, bozor subyekti, investitsiya

### Kirish

Dunyo bozorida KOB va yirik kompaniyalar o'rtasidagi integratsiya muvaffaqiyatli natijalar beradi. Masalan, G'arbiy Yevropada kichik ishlab chiqaruvchilar yirik kompaniyalar bilan yetkazib berish, ishlab chiqarish va marketing jarayonlariga integratsiyalashgan holda global raqobatda faol qatnashadi. Shu bilan birga, KOBlar yangi texnologiyalarni tezroq joriy etish, mahsulot sifatini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida 2020-yildan boshlab iqtisodiy islohotlar, xususiyl sektorini rivojlantirish tashabbuslari va Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmonlari orqali KOB va yirik biznes integratsiyasi jarayonlari faollashdi. KOBlarni soliq yukidan ozod qilish, kredit va grant resurslari bilan ta'minlash, startup va innovatsion loyihalarni rag'batlantirish kabi chora-tadbirlar integratsiyani qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, vertikal va gorizontal integratsiya mexanizmlari yirik va kichik sub'ektlarni birlashtirib, samarali iqtisodiy tizim yaratadi.

Globalashuv jarayonlari boshlanmagan davrlardayoq jahon bozorida valyuta muomalasida jiddiy cheklovlar yo'q davlatlar yuzaga keldi. Bunday davlatlar qatoriga AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Kanada, Norvegiya, Niderlandiya, Syangan (Gonkong), BAA va boshqa davlatlarni kiritish mumkin.

Bu davlatlardagi tadbirkorlar o'zlarini erkin bozor subyektlari hisoblab, tashqi iqtisodiy munosabatlarda faol qatnashadilar. Shu bilan birga milliy valyutasi qisman konvertirlanadigan ayrim mamlakatlarda borki, ulardagi tadbirkorlar vakolatli tijorat banklari va davlat milly banklari orqali valyuta muomalalarini amalga oshirib, tashqi bozorda o'z faoliyatlarini olib boradilar. Har qanday sharoitda biznes subyektlari jahon miqyosidagi ochiq bozor ishtirokchilariga aylanib, iqtisodiy munosabatlarda o'z o'rnini topishga intiladi.

O'zbekistonda ham yirik va kichik biznesni hamda xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish davlat tomonidan tartibga solinib, muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda ishbilarmonlik muhiti kengayib bormoqda. Bu haqda ko'p gapirish mumkin. Biroq tanqidiyl jihatdan yondashilsa "xususiyl mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta'sirchan himoyasini ta'minlash" masalalarida ham yechimini kutayotgan qator muammolar bor. Ushbu

muammolarni hal etishda xorijiy tajribalarning u yoki bu jihatlarini o'rganish va maqbul chora-tadbirlarni qo'llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

### Nazariy asoslar

Bozor iqtisodiyoti nazariyasi asosan resurslarning samarali taqsimlanishi, raqobat, erkin tashqi iqtisodiy aloqalar va innovatsion rivojlanish konsepsiyalariga tayangan. Kichik va o'rta biznes iqtisodiyotda ish o'rinlarini yaratish, texnologik yangiliklarni joriy etish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi asosiy sub'ekt sifatida ajralib turadi. Yirik kompaniyalar esa ko'lamli investitsiyalar, global marketing va infratuzilmaviy resurslarni boshqarish imkoniyatiga ega. Shu sababli, yirik va kichik biznes integratsiyasi iqtisodiy samaradorlik, resurslarni tejash va innovatsiyalarni tezkor tatbiq etish uchun zarur.

Mikromoliya va makroiqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan KOB va yirik kompaniyalar o'rtasidagi integratsiya iqtisodiy o'sishning strategik mexanizmi hisoblanadi. Vertikal integratsiya orqali kichik ishlab chiqaruvchilar yirik korporatsiyalarning yetkazib beruvchisi yoki hamkor yetkazib berish zanjirining bir qismi bo'lib faoliyat yuritadi, shu bilan sifat va texnologik standartlarni oshiradi. Gorizontall integratsiya esa kooperatsiyalar, klasterlar va hamkorlik orqali KOBlarni birlashtiradi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradi.VV

### Jadval 1: O'zbekistonda KOB va yirik kompaniyalar statistikasi

Yil	KOB soni	Yirik kompaniyalar soni
2021	45000	1200
2022	47000	1300
2023	49000	1400

Nazariy jihatdan, integratsiya KOB va yirik kompaniyalar o'rtasida o'zaro manfaatlarni mustahkamlash, bozor ulushini oshirish, ichki va xalqaro raqobatda kuchli pozitsiyalarni egallashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, monopoliyalashuv xavfi, kichik sub'ektlarning mustaqilligining kamayishi va ichki raqobatning susayishi kabi kamchiliklar ham mavjud. Shu sababli, integratsiya strategiyasi doimo shaffof, raqobatni saqlaydigan va ijtimoiy himoyani ta'minlovchi mexanizmlar bilan birgalikda amalga oshirilishi zarur.

Nazariy asoslar bo'limi yirik va kichik biznesning iqtisodiyotdagi rolini, integratsiya shakllarini va ularning samaradorligini batafsil yoritadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti nazariyasining amaliy tatbiqi, KOB va yirik kompaniyalar o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari, ish o'rinlari va innovatsion rivojlanishga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Integratsiyaning nazariy jihatlarini keyingi bo'limlarda O'zbekiston va xalqaro tajribalarga moslashtiriladi.

### Yirik va Kichik Biznes Integratsiyasi

Yirik va kichik biznes integratsiyasi ikki asosiy shaklda amalga oshadi: vertikal va gorizontall. Vertikal integratsiya kichik ishlab chiqaruvchilarni yirik kompaniyalar bilan bog'lab, sifat va texnologik standartlarni oshiradi. Masalan, avtomobil sanoatida kichik ishlab chiqaruvchilar yirik avtomobil kompaniyalariga ehtiyot qismlar yetkazib beradi. Shu bilan birga, yirik kompaniyalar kichik sub'ektlarga texnologik treninglar va sertifikatlash tizimlarini joriy etadi. Vertikal integratsiya nafaqat sifatni oshiradi, balki ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va yetkazib berish zanjirini samarali boshqarish imkonini beradi.

Gorizontall integratsiya esa kichik va o'rta bizneslarni birlashtirib, klasterlar va kooperatsiyalar shaklida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradi. Bu nafaqat resurslarni tejashga, balki yangi bozor segmentlariga chiqish va innovatsiyalarni tezroq

joriy etishga imkon beradi. Masalan, Yevropada qishloq xo'jaligi klasterlari kichik fermer xo'jaliklarini birlashtirib, birgalikda xalqaro bozorlarga mahsulot eksport qiladi. Shu tarzda, gorizontal integratsiya KOBlar orasida hamkorlikni mustahkamlaydi va bozor ulushini oshiradi.


Integratsiyaning afzalliklari: resurslarni tejash, bozor ulushini oshirish, texnologiyalarni joriy etishni tezlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirish. Kamchiliklari: kichik sub'ektlarning mustaqilligi kamayishi, monopoliyalashuv xavfi va ichki raqobatning pasayishi. Shu sababli, har bir integratsiya strategiyasi davlat qo'llab-quvvatlashi, moliyaviy va huquqiy kafolatlar bilan birga olib borilishi zarur.

Yirik va kichik biznes integratsiyasi samarali amalga oshirilsa, iqtisodiyotda innovatsiyalar tez joriy etiladi, ichki va xalqaro raqobat kuchayadi, ish o'rinlari ko'payadi, KOBlarning eksport salohiyati oshadi. Shu bois, integratsiya jarayonlari davlat siyosati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, texnologik infratuzilma va ijtimoiy kafolatlar bilan birga olib borilishi kerak.

### Amaliy tajribalar va statistika

Dunyo bozorida yirik va kichik biznes integratsiyasining muvaffaqiyatli tajribalari ko'p. Masalan, Germaniya va Shvetsiyada sanoat klasterlari KOBlarni yirik korporatsiyalar bilan birlashtiradi. Shu orqali KOBlar eksport salohiyatini oshiradi, yangi texnologiyalarni joriy etadi va ish o'rinlarini kengaytiradi. Statistika shuni ko'rsatadiki, klasterlar orqali integratsiyalashgan KOBlar o'rtacha 20-30% samaradorlik oshishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda ham Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil va 2023-yil farmonlari asosida KOB va yirik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi. Masalan, "Yoshlar va startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturi", kreditlar va grantlar tizimi, soliq imtiyozlari orqali integratsiya jarayonlari faollashdi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda vertikal integratsiya orqali KOBlar ishlab chiqarish hajmini o'rtacha 25% ga oshirdi va eksport hajmi 15% ga ko'paydi.



Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari 10% ga ko'paydi, bu ijtimoiy ahamiyatga ega. Pie chart va bar graphlar yordamida yirik va kichik biznes integratsiyasi natijalari vizual tarzda ko'rsatish mumkin. Masalan, pie chart orqali KOB va yirik kompaniyalar o'rtasidagi ishchi kuchi ulushi, bar graph orqali esa ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyatidagi o'sish ko'rsatiladi. Bu nafaqat ilmiy maqola uchun, balki amaliy tahlil va strategik qarorlar qabul qilish uchun ham muhimdir.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, davlatning qo'llab-quvvatlashi, texnologik treninglar va moliyaviy resurslar KOB va yirik biznes integratsiyasini muvaffaqiyatli qiladi. Shu bilan birga, integratsiya jarayonlari orqali innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va eksport salohiyati oshadi. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytiradi va barqaror o'sishga hissa qo'shadi.

### Xulosa

Yirik va kichik biznes integratsiyasini rivojlantirish uchun bir qator uslubiy tavsiyalar mavjud. Birinchidan, davlat tomonidan moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash tizimi kuchaytirilishi zarur. Bu kreditlar, grantlar, soliq imtiyozlari va texnologik treninglarni o'z ichiga oladi. Shu tarzda, kichik va o'rta biznes yirik kompaniyalar bilan samarali hamkorlik qilish imkoniga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, texnologik integratsiyani rivojlantirish muhim. Raqamli platformalar, elektron savdo va ERP tizimlari orqali KOBlar va yirik kompaniyalar bir-biri bilan tezkor va samarali aloqada bo'la oladi. Shu bilan birga, innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish jarayonida hamkorlik kuchayadi. Masalan, O'zbekistonda startaplarni qo'llab-quvvatlash

markazlari va texnoparklar KOBlar va yirik kompaniyalar o'rtasidagi integratsiyani mustahkamlashga xizmat o'rirlarini kengaytiradi. Statistika shuni ko'rsatadiki, klasterlar orqali vizual imkoniyatiga ega bo'ladi.

### Manbalar ro'yxati

1. Mesquita, L. F., & Lazzarini, S. G. (2008). Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va yirik biznes o'rtasidagi gorizontaal va vertikal aloqalar: global bozorlarga kirish imkoniyatlari. *Academy of Management Journal*.
2. Kaiser, F., & Obermaier, R. (2020). Vertikal (no)integratsiya va korxonalar samaradorligi: boshqaruv paradigmasining qayta ko'rib chiqilishi. *Journal of Management Control*.
3. Vrchota, J., Volek, T., & Novotná, M. (2019). Kichik va o'rta biznes subyektlarida "Industry 4.0" texnologiyalarini joriy etuvchi omillar. *Social Sciences, MDPI*.
4. Lee, C., Narjoko, D., & Oum, S. (2019). Janubi-Sharqiy Osiyoda KOBlar va iqtisodiy integratsiya. ISEAS Publishing, Singapur.
5. Zahoor, N., Al-Tabbaa, O., & Khan, Z. (2020). KOBlar hamkorligi va xalqaro bozorga chiqishi: tizimli tahlil va tavsiyalar. *International Journal of Management Reviews*.
6. Grau, A. J., & Reig, A. (2015). Qishloq xo'jaligi sanoatida iqtisodiy inqiroz sharoitida vertikal integratsiya va foydalilik. *Spanish Journal of Agricultural Research*.
7. Ruziev, K., & Midmore, P. (2015). Post-sovet iqtisodiyotlarida moliyalashtirish va aloqadorlik: O'zbekiston misolida. *Journal of Development Studies*.
8. Gaybullaev, O., & Oliński, M. (2020). O'zbekistonda kichik va o'rta biznesning imkoniyatlari va muammolari. *Olsztyn Economic Journal*.
9. Tojiyev, A., & Rakhmonaliev, A. (2025). Texnologik taraqqiyotning KOB rivojlanishiga ta'siri: O'zbekistondagi tendensiyalar va amaliy tajribalar. *Green Economy Development*.
10. Abdullaev, I. (2025). O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning o'rni va istiqbollari. *Strategik tadqiqotlar jurnali*.

INTEGRATION OF LARGE AND SMALL BUSINESSES IN UZBEKISTAN

**Isakov A.**

PhD, Assoc.prof.

Namangan state technical university

**Usmonov A.B.**

Master's student

Turan International University

**Annotation:** in modern market economies, the integration of large and small businesses is an important factor in ensuring the stability of A country's economy, increasing competition, introducing innovations and expanding employment. Today, the global economy is developing rapidly, technologies and digital solutions have a profound impact on economic processes. Under these circumstances, cooperation between large companies and small and medium-sized businesses (SMEs) will help to sustainably develop the country's economy through effective integration, strengthen the domestic market, create jobs and implement innovative solutions. This article will analyze the theoretical and methodological aspects of large and small business integration, the latest situation in Uzbekistan, international experiences and future prospects.

**Keywords:** enterprise, integration, vertical integration, horizontal integrations, market economy, export, market entity, investment

## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARNING RIVOJLANISHINI IQTISODIY O‘SISHDAGI AHAMIYATI

**Anvarjonov J.Q.**

Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs magistranti  
Namangan davlat universiteti  
Namangan, O‘zbekiston  
e-mail: anvarjonovjamshidbek44@gmail.com  
ORCID: 0009-0000-5103-4540

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy o‘shish hamda barqaror taraqqiyotdagi o‘rni va strategik ahamiyati o‘rganilgan. Tadqiqotda ushbu sohaning yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining daromadlarini ko‘paytirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda iqtisodiyotning tarmoqlarini diversifikatsiya qilishdagi vazifalari yoritilgan. Shuningdek, davlat tomonidan berilayotgan soliq va kredit imtiyozlari, moliyaviy manbalardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlarning ta’siri tahlil etilgan. Yakunda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash hamda global miqyosda raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, o‘rta biznes, barqaror rivojlanish, iqtisodiy o‘shish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, innovatsiyalar, yangi ish o‘rinlari, diversifikatsiya, soliq imtiyozlari, kredit yengilliklari, moliyaviy resurslar, davlat siyosati, raqobatbardoshlik.

### Kirish

Dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri kichik va o‘rta biznes (KOB) sektorini rivojlantirish va samarali qo‘llab-quvvatlashdir. Bu soha iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi, chunki u ishlab chiqarishning moslashuvchanligini ta’minlaydi, bozor talablariga tezkor javob qaytaradi, yangi texnologiyalarni joriy etishda faol ishtirok etadi va natijada raqobatbardosh muhitni shakllantiradi.

Kichik va o‘rta biznesning ahamiyati, avvalo, uning aholining bandligini oshirish, ishsizlik darajasini kamaytirish hamda oilaviy farovonlikni ta’minlashdagi o‘rnida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, mazkur sektor aholining tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda kichik va o‘rta biznes nafaqat ichki bozorni to‘ldirishda, balki xalqaro bozorlarda ham milliy mahsulotlarimizning sifat va raqobatbardoshligini oshirishda muhim o‘rin egallamoqda. Shu bilan birga, bu sektor innovatsion faoliyatni rivojlantirish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash va yangi g‘oyalarning tijoratlashtirilishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda ushbu sohani qo‘llab-quvvatlash maqsadida soliq va bojxona imtiyozlari, kredit va subsidiyalar, yer va mol-mulkdan foydalanish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar, shuningdek, huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznesning ulushi ortib, u yalpi ichki mahsulot, bandlik va eksport hajmlarida sezilarli natijalarni bermoqda.

Mazkur maqolada kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishdagi strategik ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu sohaning afzalliklari, mavjud muammolar hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy asoslangan tarzda yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Kichik va oʻrta biznes (KOB)ning iqtisodiyotdagi oʻrni masalasi xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng oʻrganilgan. Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Jamgʻarmasi, OECD<sup>10</sup> va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlarida KOB iqtisodiy oʻsish, bandlikni oshirish va innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirishda yetakchi sektor sifatida eʼtirof etilgan.

OECD hisobotida KOB sektorining rivojlangan mamlakatlarda barcha korxonalarining 99 foizini tashkil etishi, yalpi ichki mahsulotning 60–70 foizini yaratishi va ish oʻrinlarining asosiy qismini taʼminlashi qayd etiladi [1, p. 17]. Jahon Banki hisobotida esa kichik biznes uchun yaratilgan qulay muhit mamlakatning investitsion jozibadorligi va iqtisodiy barqarorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi taʼkidlangan [2, p. 22].

Oʻzbek olimlari orasida R. Ishimbayev<sup>11</sup> kichik biznesning raqobatbardoshligini isteʼmolchilar ehtiyojlarini qondirish va xaridor tanloviga mos keladigan mahsulot yaratish qobiliyati bilan bogʻlagan [3, 48-bet]. R. A. Fatxutdinov<sup>12</sup> esa korxonalar raqobatbardoshligini uning innovatsion mahsulot ishlab chiqarish salohiyatida koʻradi [4, 116-bet]. A. P. Gradov<sup>13</sup> kichik korxonalar ustunligini ishlab chiqarish jarayonlari va raqobatчилardan farqli rivojlanish xususiyatlari orqali izohlagan [5, 82-bet]. V. Katkalo<sup>14</sup> nazariyasiga koʻra, raqobatbardoshlik xoʻjalik yurituvchi subyektning maʼlum bir bozor segmentida tashqi muhit tomonidan baholangan ustunligi sifatida qaraladi [6, 63-bet].

Shuningdek, Oʻzbekistonda qabul qilingan “2022–2026 yillarda Yangi Oʻzbekiston Taraqqiyot strategiyasi”<sup>15</sup>da kichik biznesni rivojlantirish, soliq va moliyaviy imtiyozlar berish, biznesni roʻyxatdan oʻtkazish jarayonlarini soddalashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [8, 16-bet].

Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kichik va oʻrta biznes nafaqat iqtisodiy oʻsishning drayveri, balki ijtimoiy barqarorlik, innovatsion rivojlanish va hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning muhim vositasidir.

Shuningdek, Oʻzbekistonda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi toʻgʻrisida”gi Qonun, Prezident farmonlari<sup>16</sup> va hukumat qarorlari milliy adabiyotlarda KOBni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlashning huquqiy hamda institutsional asosini belgilab bergan. Ushbu tadqiqotda kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlashning iqtisodiy oʻsish va barqaror rivojlanishdagi strategik ahamiyatini oʻrganishda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi: Tizimli yondashuv – KOBni milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida koʻrib chiqish, uning YAIM, bandlik, investitsiyalar va eksportdagi oʻrnini tahlil qilish. Qiyosiy tahlil – rivojlangan davlatlar (AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya) tajribasini Oʻzbekiston amaliyoti bilan solishtirish orqali samarali mexanizmlarni aniqlash. Statistika tahlil – rasmiy manbalar asosida KOBning YAIMdagi ulushi, ish oʻrinlari yaratishdagi hissasi, eksport koʻrsatkichlari kabi iqtisodiy

<sup>10</sup> OECD. Small and Medium-sized Enterprises (SMEs): Key Drivers of Economic Growth. Paris: OECD Publishing, 2020. – p. 15–20.

<sup>11</sup> Ишимбаев Р.Н., Инамов Х.А., Мансуралиева К.Р. Конкурентоспособность предприятий и конкурентоспособность товара в информационной экономике. Toshkent: Yashil iqtisodiyot – kelajak iqtisodi konferensiyasi materiallari, 2024. – 48-bet.

<sup>12</sup> Фатхутдинов Р.А. Стратегическая конкурентоспособность. Moskva: Ekonomika, 2017. – 116-bet.

<sup>13</sup> Градов А.П. Конкурентная стратегия фирмы. Sankt-Peterburg: Spetsial'naya literatura, 2017. – 82-bet.

<sup>14</sup> Каткало В.С. Эволюция теории стратегического управления в условиях конкуренции. SPb.: Vysshaya shkola menedzhmenta, 2016. – 63-bet.

<sup>15</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2022–2026 yillarda Yangi Oʻzbekiston Taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2022. – r. 15–18.

indikatorlarni o‘rganish. Institutsional yondashuv – davlat siyosati, soliq va moliyaviy imtiyozlar, huquqiy baza hamda tadbirkorlik infratuzilmasining KOB rivojlanishiga ta‘sirini baholash. Nazariy umumlashtirish – iqtisodiy nazariya va amaliy tajriba asosida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning strategik ahamiyatini umumlashtirish.

Mazkur metodologik yondashuvlar yordamida KOBning iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishdagi o‘rni ilmiy asoslangan holda tahlil qilindi.

### Natijalar va muhokama

Kichik va o‘rta biznes (KOB) iqtisodiyotning “tayanch ustuni” hisoblanadi. U nafaqat milliy ishlab chiqarishni rivojlantiradi, balki iqtisodiyotda raqobatni kuchaytiradi, monopoliyaga qarshi muvozanat yaratadi va yangi bozor segmentlarini shakllantiradi. Dunyo tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak: Germaniyada “Mittelstand” nomi bilan mashhur bo‘lgan kichik va o‘rta korxonalar YAIMning 52 foizini tashkil qiladi va 70 foizdan ortiq ishchi kuchini band qiladi. AQShda esa KOBlar umumiy korxonalar sonining 90 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etib, innovatsiyalarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston sharoitida ham ushbu sektorning iqtisodiy faolligi ortib, YAIMdagi ulushi ham sezilarli foizlarda oshmoqda va eksport tarkibida kichik biznes ulushi yil sayin kengayib bormoqda.

1-jadval.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi<sup>17</sup>

Klassifikator	2020	2021	2022	2023	2024	2025- Q1	2025- Q2
O‘zbekiston Respublikasi	57,5	56,9	54,6	54,3	54,3	45,6	49,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	62,3	61,4	61,8	64,6	65,8	59,5	61,4
Andijon viloyati	72,7	74,6	69,6	68,6	69,5	60,9	67,0
Buxoro viloyati	76,6	77,1	74,1	72,5	73,0	63,3	70,5
Jizzax viloyati	84,1	81,0	78,7	75,3	74,4	66,1	68,9
Qashqadaryo viloyati	74,1	71,8	70,0	70,5	71,0	62,7	67,7
Navoiy viloyati	27,8	29,2	27,9	28,1	25,1	18,0	21,2
Namangan viloyati	76,3	76,2	74,7	74,3	73,4	67,3	70,1
Samarqand viloyati	75,0	74,3	70,8	72,3	72,3	65,9	68,2
Surxondaryo viloyati	78,0	78,4	77,9	77,4	77,8	72,4	76,3
Sirdaryo viloyati	73,0	71,2	67,8	65,9	68,2	62,1	66,9
Toshkent viloyati	52,0	48,2	49,4	52,2	53,9	50,1	52,2
Farg‘ona viloyati	73,3	72,4	71,6	72,2	73,1	68,3	70,0
Xorazm viloyati	77,4	75,8	71,9	72,7	72,3	65,8	69,0
Toshkent shahri	53,6	51,1	51,2	51,7	52,4	48,9	49,9

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘rsatkich 2020-yilda 57,5% bo‘lgan, lekin yillar davomida pasayib 2025-yil I choragida 45,6% gacha tushgan. II chorakda esa biroz o‘shib, 49,6% ni tashkil qilmoqda. Bu shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesning YAIMdagi ulushi so‘nggi 5 yilda umumiy pasayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Biroq 2025-yilning II choragida tiklanish kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida asosiy tendensiyalar. Eng yuqori ulushga ega hududlar: Jizzax viloyati: 2020-yilda 84,1%, 2024-yilda 74,4%, 2025-yil II chorakda 68,9%. Namangan viloyati: doimiy

<sup>17</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

yuqori, 2020-yilda 76,3%, 2025-yil II chorakda 70,1%. Andijon, Farg‘ona, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari ham yuqori ko‘rsatkichlarni saqlab qolmoqda (2025-yil II chorakda ~67–76%).

Bu hududlarda kichik tadbirkorlik iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib qolmoqda.

Eng past ulushga ega hududlar:

1. Navoiy viloyati: juda past darajada — 2020-yilda 27,8%, 2025-yil II chorakda 21,2%. Sababi: Navoiy viloyatida yirik sanoat korxonalari (tog‘-kon, kimyo, metallurgiya) YAIMning asosiy qismini egallaydi.
2. Toshkent shahri: 2020-yilda 53,6%, 2025-yil II chorakda 49,9%. Poytaxtda yirik sanoat, xizmat ko‘rsatish va davlat sektori yuqori ulushga ega bo‘lib, kichik biznes ulushi nisbatan past. Qoraqalpog‘iston Respublikasi: 2020-yilda 62,3%, 2025-yil II chorakda 61,4% – barqaror yuqori darajada qolmoqda.

### Umumiy tendensiyalar

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ushbu konsepsiya uch asosiy yo‘nalishga tayanadi: iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanat. Mazkur uchlikni uyg‘unlashtirish va o‘zaro mutanosiblikni ta‘minlashda kichik va o‘rta biznesning (KOB) o‘rni beqiyos darajada ahamiyatlidir. Chunki KOB nafaqat milliy iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, aholining turmush darajasini yaxshilash hamda ekologik xavfsizlikni kafolatlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Birinchidan, kichik va o‘rta biznes ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy omillardan biridir. U yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholining bandligini oshiradi, ishsizlik muammosini kamaytiradi va aholining ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. KOBning keng rivojlanishi kambag‘allik darajasini qisqartirishga, aholining daromadlarini barqaror qilishga va ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, KOB nafaqat iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyekt, balki ijtimoiy adolat va farovonlikning ham kafolatchisidir. Ikkinchidan, kichik va o‘rta biznes hududiy rivojlanishda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mahalliy infratuzilma yaxshilanadi, yangi xizmat ko‘rsatish tarmoqlari paydo bo‘ladi va mavjudlari kengayadi. Natijada hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar qisqarib, markaziy va chekka hududlar o‘rtasida teng imkoniyatlar shakllanadi. Bu esa aholining o‘z yashash joyida barqaror mehnat qilishi, migratsiya oqimlarining kamayishi va mahalliy resurslarning samarali ishlatilishiga olib keladi. Shu sababli KOB hududiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi hal qiluvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, kichik va o‘rta biznes ekologik barqarorlikni ta‘minlashda ham alohida o‘rin tutadi. Yirik zavod va fabrikalarga qaraganda KOB ko‘proq ekologik toza texnologiyalarni qo‘llashga moyil bo‘ladi. Ular qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, organik mahsulotlar ishlab chiqarishga e‘tibor qaratish orqali atrof-muhitni asrashga hissa qo‘shadi. Shu tariqa, KOB iqtisodiy faoliyatni faqat daromad olish vositasi sifatida emas, balki ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va kelajak avlodlarga sog‘lom muhit qoldirish imkoniyati sifatida ko‘radi.


Kichik va o‘rta biznes (KOB) iqtisodiy o‘shish va barqaror rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lishiga qaramay, uning samarali rivojlanishida qator muammolar mavjud. Ushbu muammolarni tizimlashtirish orqali ularni hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish mumkin.

### Moliyaviy muammolar

Kredit olishdagi qiyinchiliklar – banklar ko‘pincha KOB subyektlariga kredit berishda yuqori garov talab qiladi. Bu esa yangi biznes boshlamochi bo‘lgan yoshlar va kichik tadbirkorlar

uchun katta to‘siq bo‘ladi. Foiz stavkalari yuqoriligi – imtiyozli kredit dasturlari mavjud bo‘lsa-da, ko‘pchilik tadbirkorlar uchun bank kreditlari hali ham qimmat hisoblanadi. Kapital yetishmasligi – tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari ko‘pincha biznesni kengaytirish uchun yetarli bo‘lmaydi (1-rasm).

Huquqiy va ma‘muriy muammolar. Byurokratik to‘siqlar – ro‘yxatdan o‘tish, litsenziya olish, hisobot topshirish kabi jarayonlar ko‘p vaqt va mablag‘ talab qiladi. Huquqiy savodxonlik pastligi – ko‘plab kichik biznes egalari mavjud qonun va tartiblarni yetarli darajada bilmaydi, bu esa huquqiy xatolarga olib keladi. Davlat nazorat organlarining ortiqcha bosimi – ayrim hollarda tadbirkorlar tekshiruvlarning ko‘pligidan faoliyatni erkin yurita olmaydi. Bozor va marketing muammolari. Ichki bozorda raqobatning kuchliligi – yirik korxonalar bilan raqobatlashish kichik biznes uchun qiyin kechadi.



### 1-rasm. Kichik va o‘rta biznes rivojida uchraydigan muammolar

Xorijiy bozorga chiqishdagi qiyinchiliklar – logistika, sertifikatlash va eksport talablarining murakkabligi sababli KOBning xalqaro bozordagi ishtiroki cheklangan. Marketing va reklama tajribasining yetishmasligi – ko‘plab tadbirkorlar mahsulotini samarali targ‘ib qila olmaydi. Kadrlar va bilim muammolari. Malakali kadrlar yetishmasligi – texnologik bilim va zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalariga ega mutaxassislar yetarli emas. Biznes-ta’limning rivojlanmaganligi – tadbirkorlarning ko‘pchiligi biznes reja tuzish, menejment va moliyaviy hisob-kitoblarni yuritishda tajribaga ega emas.

Innovatsiyaga moyillik pastligi – kichik korxonalar ko‘pincha eskicha usullar bilan ishlab chiqaradi, bu esa raqobatbardoshlikni pasaytiradi.

### Texnologik va ishlab chiqarish muammolari

Texnika va uskunalarning eskiligi – ko‘plab kichik ishlab chiqarish korxonalari zamonaviy texnologiyalardan foydalanmaydi.

Resurslardan samarasiz foydalanish – energiya va xomashyo tejamkor texnologiyalarning sust joriy etilishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi. Innovatsion infratuzilmaning cheklanganligi – startaplar uchun texnopark va inkubatorlar soni yetarli emas. Hududiy muammolar. Qishloq joylarda infratuzilmaning rivojlanmaganligi – transport, kommunikatsiya va elektr energiyasi ta’minotidagi muammolar tadbirkorlik faoliyatini sekinlashtiradi. Hududlar o‘rtasida tengsizlik – Toshkent va yirik shaharlarda biznes yuritish imkoniyatlari ko‘proq bo‘lsa, chekka hududlarda sharoitlar cheklangan.

## Ekologik va barqarorlik bilan bog‘liq muammolar

Atrof-muhit talablariga rioya qilmaslik – kichik korxonalarining bir qismi ekologik talablarni to‘liq bajarmaydi. Yashil texnologiyalarni joriy etishda sustlik – ekologik toza ishlab chiqarish usullari va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish past darajada. Kichik va o‘rta biznes rivojida uchraydigan muammolar moliyaviy, huquqiy, marketing, kadrlar, texnologik va hududiy sohalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat tomonidan kompleks qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish, tadbirkorlarning bilim va malakasini oshirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

### Xulosa

Kelajakda KOBni rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Raqamli iqtisodiyotga integratsiya: elektron tijorat, elektron to‘lov tizimlari, raqamli marketing vositalaridan keng foydalanish;
2. Startaplar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash: venchur kapital fondlarini yaratish, yosh tadbirkorlarni grant va investitsiyalar bilan ta‘minlash;
3. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: kichik biznesni eksportga yo‘naltirish, “Made in Uzbekistan” brendini rivojlantirish;
4. Hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash: qishloq joylarda oilaviy biznes, kooperativlar va fermer xo‘jaliklarini kengaytirish;
5. Kadrlar tayyorlash: tadbirkorlik bo‘yicha maxsus kurslar, treninglar va oliy ta‘limda amaliy yo‘nalishlarni kuchaytirish.

Kichik va o‘rta biznes mamlakat iqtisodiy mustaqilligi, barqaror rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uni qo‘llab-quvvatlash orqali O‘zbekistonning yangi iqtisodiy modeliga o‘tishi tezlashadi va innovatsion taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratiladi.

### Manbalar ro‘yxati

1. Pawlowski, A., & Szyszka, A. (2017). *Monetary Policy and Economic Growth*. Springer International Publishing.
2. Bernanke, B., & Gertler, M. (1995). Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 27-48.
3. Mishkin, F. S. (2001). The Transmission Mechanism and the Role of Monetary Policy. *Federal Reserve Bank of New York Economic Policy Review*, 7(1), 13-23.
4. Taylor, J. B. (1993). Discretion versus Policy Rules in Practice. *Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy*, 39, 195-214.
5. Özdemir, Z. A. (2011). The Role of Monetary Policy in Economic Growth. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 1(2), 95-104.
6. OECD. (2019). *Monetary Policy and Economic Growth: A Guide for Policymakers*. Organization for Economic Cooperation and Development.
7. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). *Monetary Policy Report*. Tashkent: Central Bank of the Republic of Uzbekistan.
8. Qutbiddinovich S. I., Ikromiddinovich S. K. Tijorat banklarida umumiy ichki audit tekshiruvi uslubiyotini takomillashtirish //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. 03. – C. 51-5

**THE IMPORTANCE OF ENTREPRENEURIAL DEVELOPMENT IN ECONOMIC  
GROWTH**

**Anvarjonov J.Q**

Master's student

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

e-mail: anvarjonovjamshidbek44@gmail.com

ORCID: 0009-0000-5103-4540

**Annotation:** This article explores the role and strategic importance of the development and support of SMEs in economic growth and sustainable development. The study highlights the tasks of this sector in creating new jobs, increasing the income of the population, introducing innovations and diversifying sectors of the economy. The impact of reforms aimed at improving the tax and credit benefits provided by the state, the expansion of access to financial resources and the entrepreneurial environment has also been analyzed. In conclusion, the development of small and medium-sized businesses is justified as one of the main factors in strengthening the economic stability of the country and increasing competitiveness on a global scale.

**Keywords:** small business, medium business, sustainable development, economic growth, entrepreneurship support, innovation, new jobs, diversification, tax incentives, credit relief, financial resources, public policy, competitiveness.

# ENSURING THE EMPLOYMENT OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP

**Maftuna Nosirjanova**

Master's student

Turan International University

e-mail: maftunanosirjonova1@gmail.com

**Abstract:** This article reflects on the role of women in the development of family businesses, the conditions created to ensure women's employment in these businesses, the laws enacted, and the proposals for further development. There is a need to expand supportive measures such as special credits, subsidies, and grants for women. Additionally, it is important to develop educational programs and organize specialized training to enhance knowledge in finance and management. Finally, preserving cultural values and respecting them in the development of family businesses is essential, as this approach can align with the traditional norms of the community and contribute to economic growth.

**Keywords:** Family businesses, economic stability, entrepreneurship, gender equality, women's empowerment, government initiatives, cultural preservation, Uzbekistan, social development

## Introduction

Today, family businesses play a vital role in ensuring economic stability, improving employment opportunities, and enhancing the living condition of the living conditions of the population. Recognizing this importance, our president has implemented additional measures to boost the financing of business initiatives within the framework of family business development programs. These initiatives aim to support the growth and sustainability of family-run enterprises which are critical to the local economy. To support this vision, local authorities, and responsible agencies have developed comprehensive roadmaps which outline clear strategies and actions for promoting family businesses.

The Law of the Republic of Uzbekistan on Guarantees of Equal Rights and Opportunities for Women and Men was officially announced on September 3, 2019.<sup>18</sup> This landmark law aims to ensure equality between women, girls, and men across various aspects of life. This law represents a significant step towards creating a more inclusive society by establishing legal frameworks that protect against gender-based discrimination and promote equality in areas such as education, employment, health, and social participation. It underscores the commitment of Uzbekistan to advancing gender equality and empowering women and girls while ensuring that men also benefit from equal opportunities.

From a scientific perspective, several researches have been done on this aspect of family entrepreneurship. For example, in her article, Leona Achtenhagen studied the effect of female membership on family business boards. She examined how having women on the boards of family businesses impacts the decision-making process, leadership dynamics, and overall performance of these businesses. Achtenhagen's research explores the potential benefits and challenges that female board members bring to family-owned enterprises. Her findings contribute to understanding how gender diversity in leadership positions can influence business strategies, innovation, and long-term sustainability within family businesses (Achtenhagen, 2017). In her article, Vanessa Ratten discussed women's entrepreneurship in private business, examining the role of gender in these

---

<sup>18</sup> Law of the Republic of Uzbekistan, от 02.09.2019 г. № LRU-562

businesses and highlighting the personal influence of female leadership in Germany. She focused on the role of women as entrepreneurs, analyzing how they navigate challenges and opportunities in the private sector. Ratten explored the unique qualities and leadership styles that women bring to entrepreneurship, as well as the impact of gender on business practices and success. (Ratten, 2021)

In summary, there is a considerable body of research and a robust framework of governmental legislation addressing the role and development of family businesses. Academic studies have explored various aspects of family entrepreneurship, including gender dynamics, decision-making processes, and the impact of family values on business sustainability.

### Methodology

Family entrepreneurship refers to entrepreneurial activities or businesses that are owned and operated by family members with the goal of generating income. In this type of entrepreneurship, the business is typically a shared venture that involves multiple family members, who contribute their time, resources, and skills to manage and grow the enterprise.

Key characteristics of family entrepreneurship include:

- Family Involvement: The business is controlled and operated by members of a family, often with each member playing a distinct role in the business's operation or management.
- Long-Term Focus: Family-run businesses often prioritize long-term sustainability over short-term profits. They may aim to pass the business down through generations, creating a legacy for future family members.
- Shared Values and Goals: Family members typically have a shared sense of purpose or vision for the business. This can lead to strong internal cohesion, but it can also present challenges when personal relationships and business interests intersect.
- Risk and Reward Sharing: Income, risks, and rewards are typically shared among family members. Successes and failures impact the entire family, which can motivate the group to work closely together or create tension.
- Resource Sharing: Family entrepreneurs often leverage family resources such as capital, time, skills, and networks to grow the business. This collaborative approach can provide advantages, but also challenges regarding control and decision-making.

The program "Every Family is an Entrepreneur" signed by the president on June 8, 2018,<sup>19</sup> aims to promote and support family entrepreneurship, handicrafts, homemaking, and other small-scale activities, to ensure that every family has a stable source of income. This initiative seeks to empower families to become self-sufficient by encouraging them to engage in entrepreneurial ventures, while also contributing to the broader economy. Key objectives and benefits of this program include:

**Income Stability for Families:** By encouraging family-based entrepreneurship, the program provides families with opportunities to generate income. This is particularly beneficial for those who may not have access to traditional forms of employment or for communities with limited job opportunities.

**Promotion of Traditional Crafts and Skills:** The program aims to revitalize and popularize handicrafts, homemade goods, and other traditional forms of business. This helps preserve cultural heritage while offering families a chance to tap into niche markets for unique, handcrafted products.

---

<sup>19</sup> <https://lex.uz/acts/-3772869>

**Job Creation and Unemployment Reduction:** A central focus of the program is to address unemployment by creating opportunities for families to start their own businesses. By supporting family entrepreneurship, the program works to alleviate the economic pressures that often contribute to joblessness in certain regions.

In essence, the “Every Family is an Entrepreneur” program seeks to equip families with the necessary skills and opportunities to become entrepreneurial, thus reducing unemployment, promoting self-sufficiency, and fostering economic growth through family-led enterprises.

To improve family entrepreneurship, various rules and opportunities are being created to support women and government initiatives. For example, special credit programs and loans are being offered to women, making it easier for them to start or expand businesses within family enterprises. Additionally, training programs are provided to help women gain necessary business skills, such as management, marketing, and finance, enabling them to better contribute to and manage family businesses.

### Discussion

Family businesses stand out for their long-term stability and potential to be passed down as a legacy through generation. Beyond economic benefits, they play a significant role in fostering social development. They shared goals and values among family members contribute to internal cohesion, ensuring stability. However, the intertwining of personal relationships with business matters can sometimes lead to conflicts, underscoring the need for effective conflict management strategies. Studies demonstrate that women’s involvement in family business enhances decision-making processes and foster innovation. Women’s active participation in entrepreneurship not only promotes their economic independence but also plays a pivotal role in advancing social equality. This highlights the importance of gender-inclusive policies and practices within family enterprises. The “Every family is an entrepreneur” initiative in Uzbekistan has been instrumental in enabling families to launch and expand businesses. The program has made substantial contributions to economic growth by providing financial support and training. Nevertheless, regional disparities persist, with some areas facing resources and practical support. Addressing these issues could further enhance the program’s impact.

### Results

Family businesses play a vital role in ensuring economic stability and increasing employment opportunities.

Special credits, tailored curricula, and distance learning opportunities created for women are helping to enhance women's involvement and activism in the business sector.

